

ONA TILI DARSLARIDA MUMTOZ MATNLARNI O‘QITISH

Yusufaliyeva Muhabbat Akramjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

O‘zbek tili va adabiyoti ta’limi yo‘nalishi

3-kurs talabasi

yusufaliyevamuhabbat@gmail.com +998931200501

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida mumtoz matnlarni o‘qitishning ahamiyati, uslubiy yondashuvlari tahlil etiladi. Mumtoz adabiyot namunalarining til boyligini oshirish, estetik didni shakllantirish va milliy ongni yuksaltirishdagi o‘rni asoslanadi. Maqolada mumtoz adiblar ijodidan foydalanishning o‘quvchilarda fikrlash va ifoda ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida mumtoz matnlarni o‘qitish tajribalari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz, dars, o‘quvchi, ta’lim, matn, ko‘nikma.

Annotation. This article analyzes the importance and methodological approaches to teaching classical texts in native language classes. The role of classical literature in increasing linguistic richness, forming aesthetic taste, and raising national consciousness is substantiated. The article highlights the impact of using the works of classical writers on the development of students' thinking and expression skills. It also examines the experiences of teaching classical texts based on modern educational technologies.

Keywords: classic, lesson, student, education, text, skill.

Mumtoz matnlar – xalqimizning bebaho ma’naviy merosidir. Bu kabi matn turlarida o‘zbek tilining qadimiy shakli, xalqona iboralar, boy lug‘at qatlam, ma’naviy-axloqiy tafakkur mujassam. Mumtoz matnlar orqali nafaqat to‘g‘ri yashash o‘rganiladi, balki

qadimiy tilimiz qanday bo'lganligi haqida ham birmuncha ma'lumotlar o'quvchilar ongida shakllanadi.

Adabiy matnlar har doim til darslari uchun muhim material manbai bo'lib kelgan, chunki ular haqiqiy kontekstlarda tillardan keng foydalanishni namoyish etadi. Ta'kidlash joizki, badiiy matnlar tilni o'qitishning sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlari uchun asosiy o'quv materiallarini to'ldirish uchun qimmatli manba sifatida ko'rib chiqilgan. Til o'rgatishda adabiyotdan foydalanishga bo'lgan qiziqish uchta o'zaro bog'liq elementda yotadi: haqiqiylik, madaniyat va shaxsiy o'sish [1; 63].

Shu o'rinda olima Klaraxon Mavlanovanning "Ona tili darslarida matnning til xususiyatlarini o'rganish" maqolasida yozgan gaplari ham o'rinli: "Ona tili" darsliklarida taqdim etilgan badiiy matnlar tiliga xos bo'lgan bo'yoqdor, emotsional-ekspressiv, shirador va ohangdor sintaktik qurilmalar, shuningdek, badiiy tasvir vositalarini tahlil qilishning ahamiyati benihoya katta. Bu jarayon orqali o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlantiriladi, adabiyot darslarida olingan bilimlari kengaytiriladi, badiiy asar to'qimasini anglashlari hamda uslubiy qoidalarni amaliy egallashlari uchun puxta zamin yaratiladi" [2; 13-14 b].

O'quvchilar mumtoz matnlar bilan ishlash jarayonida lug'at zaxirasi kengayadi, o'qib tushunish ko'nikmasi shakllanadi va ifodali o'qish layoqati shakllanadi. Badiiy matnni yaxlit idrok etish va tushunish, matnni tahlil qilish va talqin qilish qobiliyati quyidagi faoliyat turlariga asoslangan holda mumkin bo'ladi:

- turli janrdagi badiiy asarlarni ongli, ijodiy, ifodali o'qish;
- qayta hikoya qilish (batafsil, qisqa, izoh elementlari bilan, ijodiy topshiriq bilan);
- savollarga javoblar;
- asarni tahlil qilish va talqin qilish;
- rejalar tuzish;
- adabiy qahramonning xarakterlari;
- asarga sharh yozish;

- insho yozish. [1; 64-b].

Ona tili darslarida badiiy matn yuzasidan berilgan mashqning asosiy shartlari bajarilib, parcha ifodali o‘qilgandan so‘ng til xususiyatlarini sanab ko‘rsatilgan yo‘nalishlardan biri bo‘yicha o‘raganish ishlariga qisqa vaqt ajratish taqozo etiladi. Ushbu jarayonda o‘quvchi ayrim so‘z va so‘z shakllarining badiiy matnda namoyon qilgan go‘zalligini, nafosatini, qudratini, emotsional-ekspressiv so‘z shakllari, leksik vositalarning ahamiyatini qadam-baqadam anglab, o‘zi uchun so‘zning yangi qirralarini kashf etib boradi [2; 14 b]. E’tiborimizni 8-sinf ona tili darsligida “Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash” mavzusida aks etgan 117-topshiriqqa qaratsak:

Yana turk lafzining mahbub jonibidin yasanmog‘i **muqobalasida** sort lafzida **orosta** va **oroyish** lafzi bor. Ammo bezanmak muqobalasida demaydurlar va ul yasanmog‘ning mubolag‘asidur va ani mundoq debdurlarkim,

Bayt:

Erur bas chu husn-u malohat senga,

Yasanmoq, bezanmak ne hojat senga.

Va xo‘blarning ko‘z va qoshlari orasinki, **qabog‘** derlar, forsiyda bu sozning oti yo‘qtur. “Masnaviy”da bir jamoat xo‘b ta’rifida mundoq deyilibdurkim,

Bayt:

Mengizlari gul-gul, mijjalari xor,

Qabog‘lari keng-keng, og‘izlari tor.

Alisher Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” [3;85].

Yuqoridagi matndan so‘ng, lug‘at bilan ishlash va bog‘lovchi so‘zlarni aniqlash topshirig‘i berilgan. Ko‘rinib turibdiki, ushbu mashq orqali grammatik bilimlar takrorlanadi, lug‘at boyligi oshadi, mumtoz matnlarni o‘qib tushunishga oid

ko'nikmalarini shakllanadi. Xuddi shu darslikda aks etgan "Talab vodiysi" she'riy matnga ham diqqat qilsak:

Ollingga kel/sa agar pi/li damon
Ko'rgosen pash/sha hamon-u/ pil hamon.
Gar yo'lungni /tutsa yuz she/r-u palang,
Bo'lg'ay olling/da nechukkim/ mo'ri lang.
Ajdahodin /yetmagay ko'/ngulda ranj,
O'yla bo'lmish/ bo'lg'ay ul mash'/uf ganj.
Kufr ila iy/mong'a urg'ay/sen ilik,
Bu tama'din/kim ochilg'ay/ bir eshik.
Chun eshik o/childi ne kuf/r-u ne din,
Ichkari kir/gach qutulding/ barchadin.
Kufr-u iymon/ rohravg'a /kesh emas,
Asl yo'lda /bandi rohe, /besh emas.

Alisher Navoiy, "Lison ut-tayr" [3; 42].

Ushbu she'riy matn turoqlarga ajratilgan va o'quvchilardan aruz vazni qoidalariga rioya qilib o'qish topshiriq sifatida berilgan. Adabiyot darslaridagi olingan bilimlarga tayanib, topshiriqlar bajariladi, lug'atlar bilan ishlanadi, o'quvchilar o'zlari uchun zarur bo'lgan hayotiy xulosalar chiqaradi. Mazkur darslik ona tili fanini adabiyot fani bilan integratsiya qilishga katta imkoniyat yaratib beradi. O'quvchilarimiz mumtoz matnlarni o'qib tushuna olmasligi bugungi adabiyot ta'limimizning eng og'riqli nuqtalaridan biridir. Aksariyat o'qituvchilar tomonidan murakkab deb e'tirof etilyotgan professor B. Mengliyev hammuallifligida takomillashtirilgan 8-sinf "Ona tili" darsligi bugungi zamon talablariga to'la mos kelishi bilan birga o'quvchida lug'at va matn bilan

ishlash imkonini beradi [5; 161]. So‘nggi o‘n yil ichida adabiyotga qiziqish tilni o‘rganish uchun mavjud manbalardan biri sifatida qayta tiklandi. Aslida, adabiyotni kommunikativ darslik bilan taqqoslaganda, o‘rganish yondashuvi, qanday aytishni o‘rganish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish ma’nosini o‘zgartiradi [1; 63].

Avvalo shuni ta’kidlash lozimki, mumtoz matnlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivollantirishga, badiiy didni shakllantirishga qaratilar ekan, demak, tanlangan matn o‘quv yoshiga mos bo‘lishi va matn o‘quvchining qiziqishini oshira olishi lozim. Ushbu matnlarni o‘qitishda “Klaster” usulidan, “Insert” usuli va matndagi notanish so‘zlar izohi bilan ishlash kabi bir necha metod va usullar foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

K. Mavlonova badiiy matn bilan ishlamaslikning o‘quvchilarga ta’siri haqida so‘z yuritadi: “Ona tili darslarida mashq tarkibida keltirilgan badiiy matndagi (terma gaplar, nasriy asardan parcha, she’riy misralar she’r) badiiy qiymat yaratishda foydalanilgan til hodisalari, badiiy tasvir vositalari tahlil qilinmas ekan, o‘quvchilar o‘z holicha badiiy matnning til xususiyatlariga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni kutilganidek egallamay yuraveradilar. Natijada ularning matn yaratishga doir topshiriqlarni bajarisharida sifat o‘zgarishlari sust amalga oshadi” [4; 68-69].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, xalqimizning boy ma’naviy boyligi sifatida qaraladigan mumtoz adabiyot namunalarini ona tili darslarida o‘qitish o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirishda, estetik didini shakllantirishda va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu matnlar orqali o‘quvchilar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, badiiy imkoniyatlari hamda go‘zalligiga guvoh bo‘ladilar. Shuningdek, matn tanlashda o‘quvchilarning yoshi, dunyoqarashi va hozirgi zamon talablari e’tiborga olinishi kerak. Faqat ana shundagina ona tili darslari ma’naviy-axloqiy jihatdan boy, mazmunli va ta’sirchan bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odilova D. A., Umarova Z. A. Ona tili ta'limida mumtoz matnlar ustida ishlash // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – Hosted online from Moscow, Russia. 2024. 11-sentyabr. – B. 62–64.
2. Мавлонова К. Она тили дарсларида бадий матннинг тил хусусиятларини ўрганиш // Til va adabiyot ta'limi. 2011. – №3.
3. М. Qodirov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2019.
4. Mavlonova K. Badiiy matnning til xususiyatlari ustida ishlash tajribasi // Pedagogika. 2014. – № 3.
5. Murodova Sh. O'quvchilarda mumtoz matnlar orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish // global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: IV an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. 6-may.

References:

1. Odilova D. A., Umarova Z. A. Ona tili ta'limida mumtoz matnlar ustida ishlash // Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – Hosted online from Moscow, Russia. 2024. 11-sentyabr. – B. 62–64.
2. Мавлонова К. Она тили дарсларида бадий матннинг тил хусусиятларини ўрганиш // Til va adabiyot ta'limi. 2011. – №3.
3. М. Qodirov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2019.
4. Mavlonova K. Badiiy matnning til xususiyatlari ustida ishlash tajribasi // Pedagogika. 2014. – № 3.
- Murodova Sh. O'quvchilarda mumtoz matnlar orqali o'qish savodxonligini rivojlantirish // global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti: IV an'anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2020. 6-may.